

O'QUVCHIDA MUSTAQIL FIKRNI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY YOZMA ISHLARNING O'RNI (kognitiv ta'lim aspektida)

Shohruhbek Umidjonov,
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchida mustaqil fikrni shakllantirishda yozma ishlarning o'rni haqida metodik xulosalar tadqiq etiladi.

Annotation: This article examines the methodological conclusions about the role written work in the formation of a student's independent opinion.

Tayaynch so'z va iboralar: metodika, ijodiy ish, yozma ish, kognitiv ta'lim, mustaqil fikr, matn.

Key words and phrases: methodology, creativity, written work, cognitive education, independent thinking, text.

Zamonaviy metodikada kognitiv ta'lim o'quvchi ijodiy tafakkuri yoki uning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim turi sanaladi.

Ta'kidlash lozimki, ona tili darslarida o'quvchilar bilimlarini tekshirish, baholash, shuningdek, darslar davomida hosil qilingan kuzatuvchanlik, narsa va hodisalar, voqea va holatlarni o'zaro bog'lay olishlik, ular yuzasidan qat'iy xulosaga kelishdek mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida o'tkaziladigan bayon hamda ta'limiy, ijodiy insholar, maxsus topshiriqli diktanlar to'g'risida fikr yuritiladi.

5-sinf ona tili darslarida og'zaki va yozma ravishda matn tuzish metodlari o'rganiladi. Matn ma'lum bir mavzu yoki rasm asosida yaratiladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki. Aksariyat hollarda o'quvchilar rasm asosida matn yaratar ekan, ko'z o'ngida lavha qanday namoyon bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi va tasvirlaydi. Aytish mumkinki, rasmda tasvirlangan holat tuzilayotgan matnni ma'lum darajada chegaralaydi.

Rasm asosida matn tuzishda o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida ijodiy ish jarayonini uch bosqichga bo'lish ma'qul:

1-bosqich: rasmda tasvirlangan holatga qadar bo'lib o'tgan voqea-hodisalar

haqidagi bildirilgan mantiqiy fikr va mulhazalar;

2-bosqich: rasmdagi holat tavsifi va unga munosabat;

3-bosqich: mazkur holatning mantiqiy davomi haqida o'quvchining mustaqil fikrlari.

SHu tarzda tashkil etilgan uch bosqichli ish o'quvchining mushohada qilish doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi.

Ijodiy yozma ishlarning samarasi ko'p jihatdan tanlangan rasmning mavzusi, sifati va xarakteriga bog'liqdir. O'quvchilar voqea-hodisalar ketma-ketligiga e'tibor beradi. Ular o'rtasidagi uzviylikni qidiradi. Demak, ijodiy ishni tashkil qilish orqali o'quvchining fikrlashiga, mushohada yuritishiga ijodiy erkinlik beriladi, uning mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Maktab tajribasida lug'at diktantlar yozdirish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum.

Lug'at diktanti o'quvchilar savodxonligi va xotirasini mustahkamlash maqsadida ona tili kursining boshidan oxirigacha (I-IX sinf) muntazam o'tkazish mumkin bo'lgan mustaqil ijodiy ishdir. Lug'at diktantlarni o'tkazishda o'qituvchi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) yozilishi qiyin bo'lgan so'zlar imlosini o'rgatish (bu so'zlar adabiyot darsida o'tilayotgan mavzudan, gazet va jurnallardan, qo'shimcha o'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlardan, "Imlo lug'at"idan, navbatdagi darslarda yoziladigan ijodiy ish, diktant, bayon, insho matnidan olingan bo'ladi);

b) berilgan so'zlar sinonimiyasi va antonimiyasi ustida ishlash;

v) so'zlarni kontekstda, matnda qo'lash malakasini hosil qilish;

g) so'zlarni ma'no jihatdan o'z o'rnida qo'llash malakasini hosil qilish;

d) paronim so'zlar bilan ishlash, ular ishtirok etgan matnlar asrsida diktant yozdirish kabilar.

Demak, lug'at diktantning ham o'z oldiga qo'ygan maqsadi, tarkibiy qismlari mavjud.

YAna shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishda yozma ish turlaridan biri bo'lgan ijodiy diktant, shuningdek, ijodiy

bayonlar ham boshqa yozma ijodiy ishlar sirasida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ona tili darsini o‘tish shunday murakkab jarayonki, unga hamma vaqt ham bir qolipda, bir xil yo‘nalishda yondashib bo‘lmaydi. SHu bilan birga o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish maqsadida darsda induktiv, deduktiv va kognitiv metodlardan alohida va qorishiq holda foydalanish samaralidir. SHuningdek, quyi sinflarda matn yaratishning oddiy shakllaridan (*rasm asosida, tabiatni, atrof-muhitni kuzatish orqali matn tuzdirish* va boshq.) keng foydalanilsa va bu jarayon uzluksiz takomillashtirib borilsa, yuqori sinflarda bayon va insho yozdirish asosida o‘quvchilarga mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alavutdinova N.G. Ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish omillari (5-sinf misolida). – NDA. – T., 2004. –B. 13.

2. Ne‘matov H., Ne‘matova G. Ona tili ta‘limi va ijodiy tafakkur sohibi (Ongli verbal, induktiv-kognitiv-pragmatik ta‘lim xususida). Jurnal: Filologiya masalalari, 2003. №3-4. –B.88-90.

3. Yigitaliyev U. S. O‘zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. ...(PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 54 b.

4. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/788>

5. <https://hp.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/7216>

6. <https://hp.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/7241>